

AMOKSIKLAV DORI VOSITASI VORDAMIDA LOR- INFEKSIYALARINING TERAPIYASI VA PROFILAKTIKASI

Ro‘ziboyev Xudoysukur Yusupovich

Xonqa tuman tibbiyot birlashmasi,
Xorazm viloyati, O‘zbekiston Respublikasi

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqot LOR organlari infeksiyalari bilan kasallangan bemorlarda himoyalangan penisillin guruhi vakili bo‘lgan “Amoksiklav” preparatining antibakterial samaradorligi va profilaktik imkoniyatlarini baholashga bag‘ishlangan. Izlanishda 30 nafar bemor (20 nafar kattalar va 10 nafar bolalar) ishtirok etdi. Preparat 3–10 kun davomida yoshga mos dozada qo‘llanildi. Davolash samaradorligi klinik va laborator ko‘rsatkichlar asosida baholandi. Natijalar “Amoksiklav” tana haroratini normallashtirishi, yallig‘lanish belgilarini bartaraf etishi, intoksikatsiya darajasini kamaytirishi hamda qon ko‘rsatkichlarini me‘yorga keltirishini ko‘rsatdi. Nojo‘ya ta’sirlar kuzatilmadi. Olingan ma’lumotlar “Amoksiklav” preparatini LOR infeksiyalarini davolash va jarrohlikdan keyingi infeksiyalar profilaktikasida samarali va xavfsiz vosita sifatida tavsiya etish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Amoksiklav, antibiotiklar, LOR organlari, infeksiyalar, antibakterial terapiya, pediatriya, jarrohlik profilaktikasi, antibiotiklarga rezistentlik.

АННОТАЦИЯ

Данное исследование посвящено оценке антибактериальной эффективности и профилактического потенциала препарата «Амоксиклав» у пациентов с инфекциями ЛОР-органов. В исследование включены 30 пациентов (20 взрослых и 10 детей), получавших консервативное и хирургическое лечение. Препарат назначался в возрастных дозировках в течение 3–10 дней. Эффективность терапии оценивалась по клиническим и лабораторным показателям. Результаты показали нормализацию температуры тела, снижение выраженности воспалительных симптомов, уменьшение интоксикации и улучшение показателей общего анализа крови. Побочные реакции не выявлены. Полученные данные подтверждают целесообразность применения «Амоксиклава» в лечении и профилактике инфекций ЛОР-органов, включая послеоперационный период.

Ключевые слова: Амоксиклав, антибиотики, ЛОР-органы, инфекции, антибактериальная терапия, педиатрия, профилактика послеоперационных инфекций, антибиотикорезистентность.

ABSTRACT

This study evaluated the antibacterial efficacy and prophylactic potential of the protected penicillin antibiotic Amoxiclav in patients with infections of the ear, nose, and throat (ENT) organs. A total of 30 patients (20 adults and 10 children) receiving conservative and surgical treatment were included in the study. Amoxiclav was administered for 3–10 days in age-appropriate doses. Therapeutic efficacy was assessed based on clinical symptoms and laboratory findings. The results demonstrated normalization of body temperature, reduction of inflammatory symptoms, decreased intoxication, and improvement of hematological parameters. No adverse effects were observed. The findings indicate that Amoxiclav is an effective and safe antibacterial agent for the treatment and prevention of ENT infections, including postoperative infectious complications.

Keywords: Amoxiclav, antibiotics, ENT infections, antibacterial therapy, pediatrics, surgical prophylaxis, antibiotic resistance.

KIRISH

Oxirgi yillarda antibiotiklar arsenali va ta'sir doirasi kundan-kunga kengayib borayotgan, mikroorganizmlarning antibiotiklarga rezistentligi o'sib borayotgan bir paytda, bolalar orasida keng tarqalgan o'tkir yuqumli, yiringli-septik kasalliklarni davolash yo'llarini takomillashtirish pediatriya amaliyotida eng muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Antibiotiklar (yunoncha: anti – qarshi, bios – hayot) – ba'zi mikroorganizmlar, hayvonlar va o'simliklarda ishlanib chiqariladigan va turli xil mikroblarning o'sishi, rivojlanishini to'xtatib qo'yadigan moddalardir. Antibiotiklar va umuman barcha kimyoterapevtik preparatlar patogen mikroblarni o'ldirmaydi, balki faqat ularning ko'payishi va rivojlanishini sekinlashtiradi, ya'ni bakteriostatik ta'sir ko'rsatadi.

Organizmni patogen mikroblardan tozalash bemorning kasallikka qarshi tabiiy himoya kuchlariga bog'liq. Demak, antibiotiklar va boshqa kimyoterapevtik dorilar patogen mikroblar ko'payishini to'xtatib yoki susaytirib, bemor organizmi sog'ayishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Antibiotiklarga rezistentlik eng avvalo shu preparatlarning noto'g'ri qo'llanilishi oqibatida yuzaga keladi. Ayniqsa ambulatoriya amaliyotida antibiotiklarni etiotropik samaradorligini hisobga olmasdan, bitta bolaga qayta-qayta bir xil antibiotik tavsiya qilinadi. Antibiotiklarni dozalash tartibi va yuborish soni e'tiborga olinmaydi, bu esa o'z navbatida gram-musbat va gram-manfiy flora antibiotiklarga chidamli shtammlarning ko'payishiga olib keladi. Natijada kasallik cho'zilib ketadi va oxir-oqibat surunkali jarayonga aylanadi.

Zarursiz antibiotiklar qo'llanishi hammaga ma'lum, foyda bermaydi, balki nojo'ya ta'sirlarga olib keladi. Bunday nojo'ya ta'sirlar avvalo antibiotiklar bexuda ishlatilganda paydo bo'ladi; ikkinchidan, eng muhimi, mikroblarning antibiotiklarga sezgirliigi kamayadi va ular dorilarga chidamli bo'lib qoladi. Oxirgi yillarda antibiotiklarning ta'siri umuman sezilarli darajada kamaygani alohida ta'kidlanadi.

Shuning uchun antibiotiklarni bemorlarga qo'llashdan avval, shifokorlar har bir dori vositasini tanlashga e'tibor berishi va antibiotiklarni imkon qadar kamroq ishlatishga harakat qilishi zarur. Dori vositalarini tanlashda, asosan kasal qo'zg'atuvchisi va uning dorilarga sezgirliigiga asoslanish kerak. Ko'pchilik hollarda bu asoslash uchun vaqt ko'p talab etiladi, ammo davolashni kechiktirib bo'lmaydi. Bundan tashqari, kasallikning surunkali shakllanishida kasal qo'zg'atuvchisi to'g'risidagi ma'lumotni har doim o'z vaqtida olish mumkin bo'lmaydi.

Hozirgi paytda medikamentoz davolashning aktual vazifasi — antibiotiklarning samaradorligi va xavfsizligiga qarab to'g'ri va ratsional davolashni tanlashdir. Medikamentoz davolashning eng muhim aspekti nafaqat kasallikning "faol" davrida, balki undan keyingi, ya'ni patologiya rivojlanishi xavfi tug'ilgunga qadar davo choralarini belgilashdir.

Aynan shu holatlar LOR amaliyotida bizni himoyalangan Penisillin "Amoksiklav" bilan izlanishlar o'tkazishga qiziqtirdi. Sloveniyaning LEK farmatsevtik zavodi "Amoksiklav" preparati o'zida amoksisillin va betalaktam inhibitor – klavulan kislotasini saqlaydi. Adabiyotlardagi [1,2,3,4] ma'lumotlarga ko'ra, bunday birikma bakteriyalarning barqaror rezistentligini buzadi, shu sababli LOR patologiyasida tavsiya qilinadigan raqamli preparat sifatida qaraladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, izlanishlar oldiga quyidagi maqsad qo'yildi:

"Amoksiklav" preparatining LOR organlari infeksiyalari mavjud bo'lgan bemorlarda bakterisid samaradorligini hamda LOR jarrohlik amaliyotida bemorni jarrohlik jarayonida infeksiyadan himoya qilish xususiyatlarini o'rganish.

Ushbu izlanish "Infeksiyaga qarshi dori vositalarini klinik baholash Evropa qo'llanmasiga" binoan o'tkazildi.

Izlanishlarga LOR a'zolarining turli infeksiyalarida konservativ va jarrohlik davolash olgan 30 nafar bemor jalb qilindi. Shulardan 20 tasi kattalar (16 dan 60 yoshgacha) va 10 tasi bolalar (1 dan 14 yoshgacha) bo'ldi.

Izlanishdan chiqarish mezonlariga quyidagilar kirdi:

- Penisillin guruhidagi antibiotiklarga yuqori sezgirlikka ega bo'lgan bemorlar
- Infeksion mononukleoz, limfoleykoz
- Jigar va buyrak funksiyalari buzilgan bemorlar
- Homilador va laktatsiya davridagi ayollar

Preparatni tayinlash sxemasi quyidagicha belgilandi:

Qabul qilish muddati: 3–10 kun.

Tekshirilayotgan bemorning davo dozasi:

- **Bolalarga:**

- 1 yoshdan 7 yoshgacha: 0,5 o‘lchov qoshiq (2,5 ml) – kuniga 3 mahal
- 7 yoshdan 14 yoshgacha: 1 o‘lchov qoshiq (5 ml) – kuniga 3 mahal

- **Kattalarga:** 2 o‘lchov qoshiq (10 ml) – kuniga 3 mahal

Dori samaradorligini baholash: Dori klinik va laborator ma’lumotlarga asoslanib baholandi.

- **Subyektiv:** bosh og‘riqlar, holsizlik, LOR organlarida og‘riq, yallig‘lanish belgilarining yo‘qolishi

- **Obyektiv:** tana haroratining pasayishi, yo‘tal, rino- va otoreya yo‘qolishi. Klinik samara tana haroratining normallasishi va LOR organlaridagi patologik holatlarning butunlay yo‘qolishi bilan ifodalanadi.

Natijalar:

Bizning izlanishlarda davolash boshlanishida tana harorati o‘rtacha $38,4 \pm 0,15$ °C edi. Davolash jarayonida tana harorati $36,76 \pm 0,05$ °C gacha normallashti ($p < 0,05$) va bu 7–10 kun ichida kuzatildi.

Laborator ko‘rsatkichlar (qon umumiy tahlili):

- **Davolashdan oldin:** leykositlar – $10,6 \pm 0,2$, neyrofillar tayog‘cha yadroli – $7,0 \pm 0,2$, segment yadrolilar – $73,8 \pm 0,9$, limfositlar – $55,3 \pm 1,06$

- **Davolash jarayonida:** leykositlar – $7,12 \pm 0,3$, dyadroli neyrofillar – $3,0 \pm 0,4$, segment yadrolilar – $61,0 \pm 1,53$, limfositlar – $34,3 \pm 1,05$; EChT – $8,7 \pm 0,7$ mm/soat

Amoksiklav bilan davolanish bemorlarning ahvolini yaxshilashga, organizm intoksikatsiyasini kamaytirishga va LOR jarrohlik amaliyotlarida ijobiy natijalarga olib keldi.

Nojo‘ya ta’sirlar:

Amoksiklav preparati bemorlarga yaxshi ta’sir ko‘rsatdi. Oshqozon-ichak buzilishlari yoki allergik reaksiyalar kuzatilmagan. Hech bir bemorda preparatga taqiqlanish aniqlanmagan. Faqatgina 3 bemorda uzoq vaqt qabul qilinganligi va dozasi oshirilganda ham klinik o‘zgarishlar sezilmagan; ular antibakterial terapiyaga o‘tkazilgan.

Baholash:

Amoksiklav LOR organlarining turli infeksiyon kasalliklarini davolashda antibakterial samaradorlikka ega. U LOR organlari patologiyalarida jarrohlik jarayonida infeksiyalarni davolash va profilaktika qilishda qo‘llanishi mumkin.

Tavsiya qilingan dozada preparat samarali va xavfsizdir, nojo‘ya ta’sirlari kam va o‘zgaruvchan xarakterga ega.

Xulosa:

Amoksiklav bemorlarda LOR organlari infeksiyalariga qarshi samarali antibakterial preparatdir. Bemorlarga stasionar va ambulator davolashda tavsiya qilinishi mumkin. Preparat birinchi gabul qilinadigan vosita sifatida bakterigramma natijalariga ega bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, operatsiyadan keyin infeksiyalar profilaktikasida ham keng ta’sirga ega.

ADABIYOTLAR.

1. Amoksiklav preparatining samaradorligi LOR organlari infeksiyalarida. Mualliflar: F. Babadjanova, O. Mahmudova.
2. Babadjanova F. R. USING DISTANCE EDUCATION TECHNOLOGIES IN HIGHER MEDICAL EDUCATION: CHALLENGES AND PERSPECTIVES //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. CSPI conference 1. – C. 485-492.
3. Changes in the prescription of antibiotics and phytopharmaceuticals in children treated for acute respiratory infections in Germany in 2022. *Journal Article*. 2022
4. Duong QA, Pittet LF, Curtis N, Zimmermann P. Antibiotic exposure and adverse long-term health outcomes in children: a systematic review and meta-analysis. *J Infect*. 2022;85(3):213–300.
5. Ismailov BZ, Zaxriddinova O. The problem of antibiotic resistance in children. *Int Conf Educ Discov Humanit*. 2025:183–188.
6. King LM, Lewnard JA. Pediatric antibiotic use associated with RSV and influenza in the United States, 2008–2018. *J Infect Dis*. 2025;232(5):e811–e823.
7. Karaboyeva MA. Antibiotics and their classification. Antibacterial Chemotherapy. *J Multidiscip Sci Innov*. 2025;1(2):780–785.